



HUMAN CAPITAL AND SOCIAL COOPERATION: THE DIALECTICS OF INTERCONNECTION

Mukhriddin Makhammadaminovych Sodirjanov

*Doctor of philosophy (PhD) in sociology, associate professor
Uzbekistan, Namangan*

ABOUT ARTICLE

Key words: human capital, social capital, socialization, community, trust, morality, spirituality, solidarity, transformation, mentality, identity, social mobility, everyday life, social mood.

Received: 16.09.24

Accepted: 18.09.24

Published: 20.09.24

Abstract: In this article, some comments are given about the stages of human capital development and ethno-social features in modern Uzbek society. Also, the components and development factors of human capital are researched today. Human capital, in its invention, covers the component of socio-biological integrity and directs it to the society. It includes demographic, health, educational, labor, cultural, ethnic, spiritual and moral components, and so on. The amount of the specified inventive part corresponds to the social activity level and functional impativlap as capital. Also, in the development of human capital, modern information technologies and learning foreign languages through the educational system have been sociologically researched.

INSON KAPITALI HAMDA IJTIMOYIY HAMKORLIK: O'ZARO ALOQADORLIK DIALEKTIKASI

Muxriddin Maxammadaminovich Sodirjonov

*Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Namangan, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: inson kapitali, ijtimoiy kapital, ijtimoiylashuv, jamiyat, ishonch, axloq, ma'naviyat, birdamlik, transformatsiya, mentalitet, identetlik, sotsial mobillik, kundalik hayot, ijtimoiy kayfiyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek jamiyatida inson kapitalning rivojlanish bosqichlari va etnosotsial hususiyatlari haqida ayrim mulohazalar berilgan. Shuningdek, bugungi kunda inson kapitalning tarkibiy qismlari va rivojlantirish omillari tadqiq etilgan. Inson kapitali o'z tarkibida bir qator ijtimoiy-

biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab oladi va uni sotsiumga yo'naltirib boradi. Bular demografik, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat, madaniy, fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, axborotlarga egalik komponenti va shu kabilardan iborat. Belgilangan tarkibiy qismlarning har biri kapital sifatida ijtimoiy zarur faoliyat turlari va funktsional imperativlarga mos keladi. Shuningdek, inson kapitali rivojlanishida ta'lim tizimib zamonaviy axborot texnologiyalar va xorijiy tillarni o'rganish sotsiologik tadqiq etilgan.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО: ДИАЛЕКТИКА ВЗАИМОСВЯЗИ

Мухриддин Махаммадаминович Содиржанов

Доктор философии (PhD) по социологии, доцент

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: человеческий капитал, социальный капитал, социализация, общность, доверие, нравственность, духовность, солидарность, трансформация, менталитет, идентичность, социальная мобильность, повседневность, социальные настроения.

Аннотация: В данной статье даны некоторые комментарии об этапах развития человеческого капитала и этносоциальных характеристиках в современном узбекском обществе. Также сегодня исследуются составляющие и факторы развития человеческого капитала. Человеческий капитал включает в себя ряд компонентов социально-биологической целостности и направляет ее в общество. К ним относятся демографическая, медицинская, образовательная, трудовая, культурная, гражданская, духовно-нравственная, информационная составляющие собственности и так далее. Каждому из выделенных компонентов в качестве капитала соответствует общественно необходимая деятельность и функциональные императивы. Также в развитии человеческого капитала социологически исследованы современные информационные технологии и изучение иностранных языков через систему образования.

KIRISH

Dunyoning etakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida "inson kapitali" muammosini etnosotsial hamda milliy identiklik xususiyatlarini o'rganish va vazifalarini aniqlash ilmiy izlanishlarning muhim ob'ektiga aylanmoqda. Shuningdek, mazkur ilmiy izlanishlarda inson kapitalini har tomonlama rivojlantirishda mehnat bozorini tashkil etishning ijtimoiy

mexanizmlarini joriy qilish, aholi urbanizatsiyalashuviga demografik ko'rsatkichlar va etnik munosabatlarning ta'siri, geografik-ekologik xususiyatlariga doir sotsiologik tadqiqotlar, etnik guruhlarining ijtimoiy va xuquqiy tengligi masalalari, etnoslar tarixi va diniy konfessional munosabatlar rivojida inson omili, ijtimoiy tafakkurning etnik, fuqarolik va boshqa shakllarining tadqiq masalalari o'rganish zaruratini ilgari surmoqda.

Inson hamisha hayotida o'zi uchun kerakli bo'lgan boylikni yig'ishga harakat qiladi. Ushbu insoniy harakat inson farovonligini oshirishning muhim mezonini bo'lib xizmat qiladi. Boylik ilmiy farazlarda "kapital" tushunchasi bilan konvertatsiya qilinadi. Shuning uchun ham, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda "kapital" tushunchasi keng qo'llanilmoqda va uning turli xil shakllari ajralib chiqmoqda. Uning asosiy mohiyati harajat qilish va to'plashda bo'lib, mazkur ijtimoiy qonun kategoriyasi sifatida insoniy faoliyatni namoyon etadi. Mazkur kategoriyaning jamiyat hayotida ko'payishi va faoliyat sifatida yuritilishi ma'lum darajada iqtisodiy o'sishga ta'sir etishi mumkin.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy transformatsiya turli jamoalar, ijtimoiy tizimlar, ijtimoiy institutlar va boshqa ijtimoiy muassalarning ijtimoiy o'zgarish jarayonida qo'llaniladigan ibora sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ko'pincha "ijtimoiy o'zgarishlar" tushunchasi "rivojlanish" tushunchasi bilan aniqlashtiriladi. Shuningdek, faylasuf va sotsiologlar tomonidan "transformatsiya" atamasi o'tgan asrning ikkinchi yarmigacha juda kam foydalanilgan. Jamiyatdagi o'zgarishlar, tarixdagi "taraqqiyot", "evolyutsiya", "inqilob" va "islohot"lar kabi tushunchalar yordamida qo'llanilgan[16.–B.34-36]. Zamonaviy sotsiologiyada "ijtimoiy transformatsiya" atamasi "innovatsiya" va "modernizatsiya" tushunchalarining modifikatsiyasi sifatida ham tadqiqotlar olib boriladi.

Sotsiolog E. Dyurkgeym "ijtimoiylashuv" tushunchasini jamoa ongi muammosi bilan, eng avvalo, avloddan-avlodga o'tadigan sotsial me'yor va an'analar bilan bog'laydi. M. Veber Ushbu tushuncha doirasida assotsiativ (uyushma) atamasini qo'llab, uni ixtiyoriy va institutsional ijtimoiylashuvga ajratadi. Bu jamiyatda qabul qilingan sotsial rag'batlantirish va majburlash me'yorlarini singdirish orqali amalga oshadi. Amerikalik sotsiolog T. Parsons ijtimoiylashuvni individning funktsional moslashuv jarayoni, deb biladi[3. – R. 149.].

Inson kapitalini xosil bo'lishi, ko'payishi va rivojlanishida oilaning farzandlar ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor va sarflangan harajatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy o'sish omillari tizimida "Inson kapitali" kategoriyasi T. Shults va G. Bekker tadqiqotlarida jiddiy o'rganilgan. "Inson kapitali" omili faqat inson (ta'lim va kasbiy mahoratlar bo'yicha)ga sarflangan investitsiyalar majmui sifatida tushunilib, uning natijasida sotsiumning ishlash qobiliyati oshdi. Yillar o'tib, Ushbu tushunchaga oid kategoriyalar shaxs va umuman

jamiyatning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan bilim, ko'nikma hamda malakalar majmui sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi"[6. – C. 102–110.].

BMTning inson taraqqiyoti dasturi tomonidan inson kapitalining asosi sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar olingan:

1. Umr ko'rish davomiyligining kutilishi indeksi. Bu salomatlik va uzoq umr ko'rishning o'rtacha ko'rsatkichi bilan aniqlanadi.

2. Ta'lim indeksi: ta'lim olishga yaratilgan sharoit, ya'ni katta yoshdagi aholini va maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim olishining o'rtacha davomiyligi bilan aniqlanadi.

3. YaMM indeksi: aholining turmush darajasi yoki aholining real daromadini aks ettiruvchi aholi jon boshiga YaMM ko'rsatkichi bilan aniqlanadi.

Bu uchta yo'nalishdagi ko'rsatkichlar indeksi 0 dan 1 gacha bo'lgan sonlar ko'rinishida standartlashtiriladi va shu sonlar miqyosida yuqoridagi uchta yo'nalishdagi ko'rsatkichlarning o'rtachasi orqali davlatlar ketma-ketligi aniqlanadi. O'zbekiston inson salohiyatining rivojlanish indeksi bo'yicha reytingda 190 ta davlat ichida 114-o'rinni egallaydi. O'zbekistonning bu ko'rsatkich bo'yicha indeksi 0, 675 ga teng [9].

Jahon Banki tomonidan dunyo 174 ta davlatlarining 2020 yil uchun inson kapitali indeksi e'lon qilindi. Malakatimizdagi sog'liqni saqlash va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar kiritilgan. Padndemiya davri boshlangunga qadar bolalar salomatligi va ta'limining asosiy ko'rsatkichlari olindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra O'zbekiston 62 foiz natija bilan MDH davlatlari ichida Belarus Respublikasi, Rossiya va Qozog'istondan keyingi o'rinda joylashgan.

Jahon banki Inson kapitali indeksi doirasida bolaning rivojlanish traektoriyasi (tug'ilganidan voyaga etgunicha) qator muhim ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi:

- tirik qolish ehtimoli (tug'ilganidan 5 yoshgacha);
- boshlang'ich va o'rta maktabda kutilayotgan ta'lim sifatiga qaratilgan o'qish davomiyligi;
- rivojlanishi orqada qolayotgan bolalar foizi;
- katta yoshdagi avlodning yashovchanligi.

Shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchovlarni birlashtirgan kompozit indekslar: Yashil iqtisodiyot indeksi, Barqaror jamiyat indeksi, Ekologik samaradolik indeksi, Qizil kitob indeksi[10] shuningdek, inson kapitalini o'rganish modellari: Solou modeli, Menkyu-Romera-Veyla modeli, Udzav – Lukasa modeli, Ramseya – Kassa – Kupmansa modeli, Minser tenglamasi va Dj.Kendirikani inson kapitali miqdorini hissoylashning Xarajatli metodi[11] o'rganildi va tadqiqot dasturini tuzishda foydalanildi.

Inson kapitaliga sarmoya eng avvalo, unga beriladigan ta'li orqali amalga oshirilishi ayni haqiqat. Bugungi kunda mamlakatda yosh avlodni ta'lim olish darajasini aniqlash maqsadida

berilgan navbatdagi savollarga respondentlarning 60,6% o'rta, 20% respondent yuqori, 18,3% respondent esa past darajada deya pessimistik xarakterdagi javob qaytardi. Berilgan javoblar tahlil qilinganda, paradoks holatni ko'rish mumkin, ya'ni ta'lim muassasalari infratuzilmasini ijobiy baholangan bo'lsa, sifati va mexanik tarzda tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlari tanqidiy fikrlar bilan to'ldirilgan. Demak, shundan ko'rinib turibdiki, mamlakatda ta'lim tizimi faqatgina shakl va ko'rinishga emas, balki sifat hamda natijadorlikka olib boradigan tub burilishlarni kutmoqda.

So'rovnomada ishtirok etganlar orasida bugungi kunda ta'limdagi turli moddiy harajatlarni yuqoriligini ta'kidlashgan. Tayyorlov kursalari(repitorlar), shartnoma to'lovlari, semestr davomida moddiy manfaat va korrupsion holatlar, masofaviy ta'lim bilan bog'liq(internet aloqasi, va boshq.) muammolarni keltirishgan. Bu holat esa abituriyentlarda stress, umidsizlik va o'qishga kirish kayfiyatini tushishiga, talbalarda esa o'quv jarayoniga yuzaki qarash, bor e'tiborni pul topishga, ilojsizlik holatlariga sabab bo'layotganini uchratish mumkin. Qolaversa o'qishga kirishda tanish-bilish yoki pul o'ynashi haqidagi salbiy stereotiplarni sanab o'tishgan. Bu fikrlarni inkor ham etib bo'lmaydi. Birgina OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali tez-tez ta'limdagi korrupsion holatlar haqidagi habarlarga ko'zimiz tushmoqda.

Shuningdek, respondentlar tomonidan ta'lim sifatini oshirish bilan birgalikda, liderlik, ishbilarmonlik, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish, turli ijtimoiy muammolarga bardoshlilik, zamonaviy axborot dasturlar, horijiy tillarni o'rganish va asosiysi vaqtni to'g'ri taqsimlay olish kabi ko'nikmalarni olishni istashlarini ta'kidlashgan.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'lik sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi

4 barobarni tashkil etadi[2. – B.224.]. Shu nuqtai nazardan ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat mamlakatni rivojlantirishning muhim usuli, inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitalini takomillashtirib moddiy farovonlik va sog'lom turmush tarziga erishiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Inson qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasi har bir yosh fuqaroning shaxsiy mulki hisoblanadi.

Ta'lim kerak, ammo u tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi shart. O'tgan davr mobaynida ta'limda turli salbiy stereotiplar shakllanishi kuzatildi. Jamiyatda ijtimoiy mavqeni oshirish uchungina oliy ma'lumotli bo'lish, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar, oliy ta'limni tanlash yoki yoshlarda maktab ta'limidan so'ng hayotiy pozitsiyalarini talaba bo'lish yoki talabalikka qarab belgilashi kuzatildi. Ta'lim jarayonlarida esa ularga ushbu mahoratlar mexanik tarzda o'rgatildi. Masalan, siz shunchaki ma'ruzalarni

tinglaysiz, ma'lum bir detallarni yodlaysiz, formulalarni qo'llaysiz va ta'lim asosan, shundan iborat bo'lgan. Taqdim etilgan fikrni shubha ostiga olish, ochiq bayon etish va asosiysi, mustaqil fikrlashga juda kam holatlarda e'tibor qaratildi. Bugungi davr talabi va xorij tajribasida ko'rish mumkinki, intellektual madaniyatni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shaxs sifatida o'z fikriga ega bo'lish va o'z fikri bilan bo'lisha olishgina zamonaviy ilm-fan hamda kasblarga egalik qilish mumkin.


Ko'pgina rivojlangan davlatlar, xususan, Yaponiya, Malayziya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning rivojlanish jarayonida ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bugungi kundagi rivojlanish jarayonlari bizning ham oldimizga ushbu davlatlar singari mehnat bozorida talab katta bo'lgan sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasini ko'ndalang qo'yimoqda. Hozirgi davrda jahon bozorida shunday kasb va hunarlar vujudga kelganki, ularning aksariyati universitet va kollejlarda emas, balki oddiy o'quv markazlarida uch yoki bir yilda emas, juda qisqa vaqt ichida tayyorlanmoqda. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Singapurda ham ta'limga iqtisodiy taraqqiyotning birinchi galdagi vazifasi sifatida qaralgan[13. – B. 57.].

Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasi muttasil oshirib boriladi[2. – B.230.].

Har qanday inson kapitalining sifat darajasi mamlakat miqyosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunda biz (ekspertlar fikri ham) doimiy ta'kidlab keladigan "ta'lim faqatgina shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati emas, balki jamiyat va qolaversa millatning jamoaviylikka yo'naltirilgan kelajagiga sarmoya sifatida ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashimiz yangicha yondashuv bo'ladi. Inson kapitali ma'lum bir chegara qiymatidan oshib ketganda, jamoaviylikka innovatsion ta'sir ortadi. Oliy ma'lumotli odamlarning yuqori foizga erishishi, bizning nazarimizda "qadriyat va udumlarga asoslangan jamoaviylik"ni "innovatsion jamoaviylik"ka yoki yaratuvchi xalq (millat)ga aylantirish kafolatini beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida aholining taxminan 17–20 foizi oliy ma'lumotli bo'lib, bu sezilarli tarzda inson kapitali sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ushbu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi uchun IHTT (Iqtisodiy Hamkorlik Taraqqiyot Tashkiloti)ga a'zo mamlakatlarning o'rtacha darajasiga mos kelishi uchun hali etarli emas.

Yuqorida ta'kidlanganidek, har qanday inson kapitalining rivojlanganlik va mukammalligi asosiy kopponent hissoblanadigan ta'lim sifatiga va davomiyligiga bevosita bog'liq. Zamonaviy oliy ta'limga alohida urg'u berilar ekan, endi diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali va irodasi mustahkam, yangicha davr ruhiga mos fazilatlar (bosiqlik, vazminlik,

diplomatiya, muloqot madaniyati, ijobiy xarakter va shu kabilar)ga ega kadrlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlar va korporatsiyalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, universitetda olingan ta'lim pragmatik belgilarni ifodalovchi darajaga qarab joylarda bandlik darajasining nafaqat miqdori, shu bilan birga sifatini ham oshiradi.



1- rasm. Etnosotsial guruhlarning xorijiy tillar va axborot texnologiyalarni bilish darajasi

Bugungi globallashuv davrida dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari qatorida bo'lish uchun birinchi navbatda, xorijiy tillar hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish mutaxassislar tomonidan muhim holat sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Lekin, afsuski, ushbu masalada mamlakatimiz ko'p jabhalarda oqsayotganligini respondentlarning aholining xorijiy tillar va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini baholash uchun berilgan savollarga bergan javoblari orqali yana bir bor iqror bo'lishimiz mumkin. Unga ko'ra, umumiy holatda, xorijiy tillar va axborot texnologiyalarini bilish darajasi past deb 18,7%, o'rta darajada deb 59,7%, yuqori darajada deb 14,9 % deb baholagan bo'lsa, 6,7% respondentlar esa mazkur savolga javob berishga qiynalishini ta'kidladi.

Global kompyuter tarmoqlari va telekommunikatsiya texnologiyalari joriy etilgan zamonaviy jamiyatda axborot ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim manbai va omiliga aylanmoqda. Bizning ko'z o'ngimizda dunyo real voqeadan axborot-virtualga aylanmoqda; afsuski, virtual haqiqat mavjudlikning asosiy shakllaridan biri sifatida tan olinmoqda. Shu munosabat bilan, axborot resurslarini saqlash va tarjima qilish, aloqa tarmoqlarining murakkablashuvi va chuqurlashishi, voqelikni virtuallashtirishning oqibatlarini, axborot texnologiyalari ta'siri natijasida ma'naviy mezonlarga bo'lgan e'tiborning pasayishi bilan bog'liq muammolar ilmiy va falsafiy munozaralar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yirik xalqaro korxonalarining markazlari bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo'nalishidagi faoliyatda inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan. IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish,

IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirishga alohida diqqat qilish zarur[2. – B.194.]. Hozirgi global butunjahon tendentsiyalarni hisobga olib, O'zbekiston uchun AKTdan jamiyatning barcha sohalarida unumli foydalanish, shuningdek, raqamli texnologiyalarning umumiy rivoji innovatsiyalar hamda jahon iqtisodiyotiga jadal sur'atlarda kirishi va integratsiyalashuvining harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. Buning uchun Respublikada jadal sur'atlarda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, lekin dastlabki ilmiy asos va ilmiy tadqiqotlarsiz ushbu jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Kundalik hayotimizga “zamonaviy odam” degan so'z ishlatilishi tabiiy holatga aylandi. Ushbu atama A. Yu. Hotsning tadqiqotida quyidagicha ta'riflanadi: “Axborot jamiyatining asosiy afzalliklari bilan bir qatorda, insonlarning kundalik hayotni, yangi madaniyatlar bilan boyitadi, an'anaviy turmush tarzidan voz kechadi, turli elitar madaniyatlarni o'zlashtirib o'zining standartini yaratadi”[8].

Zamonaviy o'zbek jamiyatida yoshlarning kattagina qismi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish salohiyati yuqori baholanadi. Shu bilan birga, axborotni sintez qilish hamda qabul qilishda axloqiy va milliy madaniyatni tark etish, ijtimoiy yolg'izlikka kelib qolish yoki aksincha, turli norasmiy jamoalar, diniy oqimlar, turli “zamonaviy madaniy” oqimlar, online o'yinlar va boshqalar ta'siriga tushib qolish, oqibatida moddiy va ma'naviy zararga uchrayotgan ba'zi holatlarda suitsid holatlari bilan tugayotgan voqealarni alohida ta'kidladilar. Yangi axborot texnologiyalari davridagi etnik hodisalarni ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan alohida ko'rib chiqmaslik kerak. Odamlar va etnik guruhlar ko'plab axborot hamda ijtimoiy aloqalarda qatnashadilar. Milliy internet tarmog'ining roli etnik ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi bo'shliqlarni to'ldirish, to'g'ridan-to'g'ri etnik aloqalardagi nuqsonlarni bartaraf etish orqali aholining an'anaviy milliy mentalitetini shakllantirishdan iborat.

Bugungi axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda insonning jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va roli beqiyosdir. Ijtimoiy qo'llab quvvatlovchi ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatdagi faoliyati darajasiga respondentlarning bergan baholari optimistik xarakter kasb etganligini ko'rish mumkin. O'z navbatida, 54,7% respondentlar ijtimoiy tarmoqlar o'rta, 23,3% so'rovnoma qatnashuvchilari yuqori, 10,9% respondent esa ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi turli xil tarmoqlar past darajada ta'sir qilishini qayd etdilar. Mos ravishda 11,2% respondent “javob berishim qiyin”, degan variantni belgilagan. O'tkazilgan tadqiqot natijalari va respondentlar fikriga ko'ra, mintaqada boshqa millat vakillarini kamsituvchi va ta'qib qiluvchi holatlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat olib borishlariga taqiqlar mavjud emasligini kuzatish mumkin.

Yangi axborot texnologiyalari davridagi etnik hodisalarni ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan alohida ko'rib chiqmaslik kerak. Insonlar va etnik guruhlar ko'plab axborot va ijtimoiy aloqalarda qatnashadilar. Milliy internet sektorining roli – etnik ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi bo'shliqlarni to'ldirish, to'g'ridan-to'g'ri etnik aloqalardagi kamchiliklarni bartaraf etish orqali aholining an'anaviy etnik mentalitetini shakllantirishda ko'maklashadi. Internet va ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda, axborot samaradorligini mamlakatning axborot makonining yaxlitligi hamda keng omma uchun tarqatiladigan media matnlarning shakllari xususiyatlari bilan belgilanadigan etno-mentalitetni axborot bilan ta'minlashda yordam beradi[14. – C. 165-171.].

Global axborot makonidagi etnik jarayonlar bir-biriga zid keladi, degan fikrga qo'shilmaslik kerak. Bir tomondan, qizg'in millatlararo aloqalar – to'g'ridan-to'g'ri (talabalar almashinuvi, turizm, mehnat migratsiyasi, muhojirlar va qochqinlar harakati) va zamonaviy ommaviy axborot vositalari (sun'iy yo'ldosh, televidenie, internet, mobil aloqa va boshq.) – etnik madaniyatlar uchun bir vaqtning o'zida turli hil muammolarni keltirib chiqarmoqda. Boshqa tomondan esa, hayotni standartlashtirish va texnologiya, sanoat, transport, savdo va aloqa vositalarini rivojlantirish uchun yagona maydonga aylanib bormoqda[14. – C. 165-171.].

XULOSA

Respondentlar tomonidan virtual hayot kundalik turmushimizning ajralmas qismiga aylanib, insonning o'z qobig'idan chiqishi, dunyoni yolg'on va soxta nigohlar bilan ko'rishiga sabab bo'lishi, ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarda odob-axloq chegarasini buzilishi va boshqa shunga o'hshash salbiy fikrlarni ta'kidlashgan. Bu o'zgacha olam insonni ishdan chalg'itayotgani bir masala bo'lsa, soxta muhabbat va do'stlik munosabatlari ko'plab oilalarning buzilishiga olib kelayotgani achinarlidir. Bu tuzoq nafaqat yoshlarni, balki hali-hanuz o'zini anglamagan katta va o'rta yoshlilar hayotiga ham chuqur kirib kelmoqda. Juda ko'p odamlar virtual muloqot, deb haqiqiy voqelikdan voz kechmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda ma'lumot berish va axborot olish har doim bilimga asoslangan, lekin ular o'rtasida keskin farqlar mavjud. Xususan, sotsiumda moslashuvchan texnologiyalar vujudga kelib, jamiyatning axborotlar tizimini paydo qilishi postindustrial jamiyatga o'tishi sharoitida yaqqol kuzatiladi. Internet, interaktiv televidenie, kibermakon, sotsial tarmoq va boshqa axborot texnologiyalarining inson kapitalini ta'minlashga asos vazifasini bajaruvchi vositaga aylanishi kuzatiladi[15]. Olingan axborot natijasida inson kapitalining transformatsiyalashuvi bilimlar mazmunini o'zgartiradi.

Ma'lumki, bugungi kunda axborot raqamli texnologiyalar orqali uzatilmoqda, o'z navbatida fan va ta'limga asoslangan jamiyatda inson kapitali qadri ham o'zgarib bormoqda. Inson endi katta hajmdagi axborotni xotirada saqlay olmaydi, chunki uni istalgan vaqtda tarmoqdan olish mumkin.

Mavjud ma'lumotlar bilan ishlash va yangilarini yaratish qobiliyati oldingi o'rinlarga chiqdi. Inson kapitalining mohiyati shu bilan bog'liqdir.

Shaxsning salohiyati asosini "qobiliyat", qobiliyat asosini "ehtiyot"lar tashkil etishiga asoslanib, bunda inson kapitali kategoriyasi "ixtiyor etish" yoki kishilarda ehtiyot va qobiliyatni harakatga keltiruvchi mexanizm sifatida gavdalanadi. Inson kapitalining shakllanish tendentsiyalari, sotsiumdagi faollashuvi, ijtimoiy oqibatlar, mental xususiyatlar, tafakkurdagi zamonaviy fikrlash tarzi va hududlardagi demografik xususiyatlar dinamikasi sotsiologik mezonlar asosida empirik tadqiqotlar bilan aniqlanishi mavjud ishlar samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Inson kapitalining zamonaviy dunyodagi harakatlanish tendentsiyalari innovatsiyalarga bog'liq ekanligi, ammo uning mobilligiga ta'sir o'tkazadigan turli ijtimoiy bosimlar, kasbiy mahorat, salohiyat va qobiliyatning inkor etilishi yoki hisobga olinmasligi kabi muammolar oldini olish uchun iste'dodli, qobiliyatli va salohiyatli kadrlarning inson kapitali rivoji hamda istiqboli uchun xizmat qilishlariga keng shart-sharoitlar yaratish va ularning hududlarni rivojlantirish uchun o'zini hissasini qo'shishga yo'naltirilgan loyihalar tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2020-yil 25-yanvar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, – 2021. – B.224.
3. Campeau R., Siros M., Rheault Y., Dufort N. Individu et societe. Introduction a la sociologie / 2 ed. – Montreal-Paris-Casablanca, 1998. – P. 149.
4. Корицкий А. В. Введение в теорию человеческого капитала // http://sibupk.nsk.su/New/04/chairs/c_theory/kapital/book1.htm
5. Нойманн Ф. Методика экономической оценки человеческого капитала / Государственное управление: трансформационные процессы в современном мире: Тез. докл. междунар. научн. практ. конф. – Минск, Академия управления при Президенте Республики Беларусь, 2002. – Ч. 2. – С. 16
6. Каменских Е. А. Концептуализация формирования человеческого капитала в социоэкономической системе региона // Научные сообщения. Экономика и управление. – 2010. – №5. – С. 102–110.
7. Хаджалова Х. М. Человеческий капитал современной семьи // Креативная экономика. – 2014. – №11 (95). – С. 62–72.
8. Хоц А. Ю. Информационная революция и этнические аспекты культуры современного общества. Автореф. дисс....кандидата философских наук [Электронный

ресурс]: 09.00.13.– Ставрополь, 2001.– 23 с.; Режим доступа: <http://www.dslib.net/religio-vedenie/informacionnaja-revoljucija> ijetnicheskie-aspekty-kultury-sovremen nogo-obwestva.html#3285172 (дата обращения: 08.05.2019).

9. Индекс человеческого развития стран мира. – URL: <http://gtmarket.ru/ratings/human-development-index/human-development-index-info>. 2017

10. Доклад о человеческом развитии 2020: Следующий рубеж - Человеческое развитие и антропоцен. Тематическая статья 7.4 — Эволюция подходов к измерениям в рамках учета деградации окружающей среды устойчивого развития 257 с

11. Поиск публикаций в Scopus по дескрипторам «human capital» и «название модели» в названии публикации, ключевых слова и аннотации (по состоянию на 28.06.2020).

12. <https://lex.uz/docs/5495533>

13. Содиржонов М. М. Инновацион таракқиёт йўлида инсон капиталини ривожланиш жараёнларини оптималлаштириш имкониятлари // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2020. – №2 (88). – Б. 57.

14. Sodirjonov M. M. On the coverage of ethnic processes in the information space //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 6. – С. 165-171.

15. Содиржонов М. Инсон капитали ривожини шахсининг онги, билими, ахлоқ-одоби, дунёқарашига боғлиқ // Янги Ўзбекистон. Ижтимоий-сиёсий газета 2022 йил 10 февраль, № 30 (552), (<https://yuz.uz/news/inson-kapitali-rivoji-shaxsning-ongi-bilimiahloq-odobi-dunyoqarashiga-bogliq>)

16. Содиржонов М. М. Инсон капитали ривожланиш жараёнларининг этносоциологик хусусиятлари (Фарғона водийси мисолида). Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2022. – Б. 43.